

О`YIN BOLA FAOLIYATINING ASOSIY TURI SIFATIDA

*To`ychiyeva Nigora Shodiqulovna
Hamidova Guljaxon Olimovna
Jizzax shahar 32-DMTT tarbiyachilari*

Annotatsiya:

Ushbu maqolada bolalar o'yinlarining ko'p asrlik tarixga ega ekanligi, o'yin bolalarning har bir faoliyatida yetakchi rolni bajarishi, bolalar o'yinlari haqida olimlarimizning bildirgan fiklari, bolalarning jismoniy hamda ma'naviy kamolotga yetishida o'yinning ahamiyati katta ekanligi, o'yinning maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogik jarayonlaridagi o'rni haqida juda ko'plab ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: o'yin, o'yin tarixi, o'yin tutlari, o'yinning mehnat tarbiyasi bilan bog'liqligi, ijodiy o'yinlar, tasvirlash vositalari, sahnalashtirilgan o'yinlar, didaktik o'yinlar.

“Bolalar o`yinlari ko`p asrlik tarixga ega, insonning o`zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan”

(K.D.Ushinskiy)

O`yin – bu insoniyat o`zligining namoyon bo`lishi, uning takomillashuv usullaridan biri hisoblanadi. O`yin faoliyati kattalar bajargan hatti-harakatlarda muayyan tarzda o`rin tutar ekan, bolalar hayotida ham o`ziga yarasha alohida hamda muhim ahamiyat kasb etadi.

O`yinni azaldan “bolalik hamrohi” deb atash qabul qilingan. O`yin maktabgacha yoshdagi barcha bolalar faoliyatining asosiy mazmunini tashkil qiladi.

O`yin paytida boladagi barcha mavjud bo`lgan barcha sifatlar ko`zga tashlana boshlaydi. Masalan, bola gapiradi, o`ylaydi, harakat qiladi, idrok etadi. Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda o`yinning ahamiyati juda katta. O`yin qadim zamonlardan buyon barcha pedagog, psixolog, faylasuf va yana bir qancha olimlarning diqqatini o`ziga tortib kelgan bo`lib, jamiyatimiz hayotida mehnatdan keyingi o`rinlarda turishi va uning mazmunini yanada yorqin ravishda belgilaydi.

Tarixga mashhur, buyuk pedagog olimlarimizdan Ya.A.Komenskiy, K.D.Ushunskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning ilg`or g`oyalari hozirgi zamon bolalar o`yinlari uchun nihoyatda ahamiyatli hisoblanadi.

Mashhur chex pedagogi Ya.A.Komenskiy: “O`yin – bola

faoliyatining, uning tabiati hamda mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli", - deya hisoblaydi. Ko'plab olimlarimizning ma'lumotlariga qaraganda, o'yin – bu bolalarning barcha qobiliyatlari rivojlanadigan aqliy faoliyatdir, o'yin orqali bolada borliq, dunyoni bilishga qiziqish, u haqidagi tasavvurlari, nutqi ham rivojlanadi. Bola aynan o'sha jarayonda o'ziga tengdosh bolalar bilan yanishadi, do'stlashadi hamda birgalikda o'yin jarayonida ishtirok etadilar.

P.F.Lestgafning fikricha, bolalar o'z o'yinlarida atrof-muhitdan olgan barcha taassurotlarini aks ettiradilar,- deya hisoblaydi. O'yin faoliyati asosida bolalarda o'quv faoliyati yanada rivojlanadi, bolalar o'yinda qanchalik yaxshi o'ynasa, maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi.

Tarbiyachi pedagoglarimiz bolalar o'yinlariga rahbarlik qilishda quyidagilarga alohida e'tibor berib, rioya etishlari lozim:

1.O'yin va mehnat o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish.

2.O'yinda bolalarning bo'lajak mehnat ahliga xos bo'lgan ruhiy hamda jismoniy sifatlarini mukammal tarzda tarbiyalashdan iborat.

Asosan, bolalar o'yinlari ikkita katta turkumga ajratiladi. Bular quyidagilardan iborat:

Ijodiy o'yinlar va qoidali o'yinlardir.

Ijodiy o'yinlarni bolalar o'zlari o'ylab topadilar. Bunday o'yinlarda oldindan belgilab qo'yilgan qoidalar mavjud bo'lmaydi. O'yin jarayonida bolalarning o'zlari qoidalar o'ylab topishadi. Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidalari tarbiyachilar tomonidan belgilanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga o'yin jarayonidagi qoidalarga to'g'ri rioya etib, faol ishtirok etishini tushuntirish tarbiyachining vazifasi hisoblanadi. Qoidali o'yinlar sirasiga didaktik, harakatli, musiqaviy va ermak o'yinlar kiradi.

O'yin – bu bolalarni yanada kuchli rivojlantirish va tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Psixologlarimiz o'yinni maktabgacha yosh davridagi yetakchi faoliyat deb qaraydilar. O'yin tufayli bolajonlarda barcha zarur sifatlar shakllanadi. O'yinda bola shaxsining barcha tomoni bir-biriga bog'liq tarzda shakllanadi. Biror bir o'yin bilan mashg'ul bo'lgan bolani tomosha qilib, uning qiziqishlarini, atrof-olam haqidagi tasavvurlarini, o'zidan kattalarga va tengdoshlariga qiladigan munosabatlarini bilib olishimiz mumkin bo'ladi.

O'yin jarayonida bola organizmiga xos bo'lgan barcha talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faolligi ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik sifatleri tarbiyalanadi. Shu tufayli ham o'yin bolalarni jismoniy tarbiyalashda munosib o'rin egallaydi.

Birinchi navbatda, ta'limning o'yin shaklida olib borilishi muhim ahamiyatga molik bo'lib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Qiziqarli o'yinlar

bolaning aqliy faolligini yanada oshiradi, o`yin jarayonida bola mashg`ulotdagiga nisbatan yana ham murakkabroq masalalarni hal qilishi mumkin.

O`yin mehnat tarbiyasi vazifasini bajarishga ham yordam beradi. Bolalar o`z o`yinlarida turli xil kasblardagi insonlarni aks ettiradilar. Bu ishi bilan bolalar kattalarning harakatlariga taqlid qilib qolmay, shu bilan bir qatorda ularning ishiga, mehnatiga bo`lgan munosabatlarini aks ettiradilar. O`yin bolada mehnat qilish xohishini uyg`otadi, o`yin uchun zarur bo`lgan narsalarni tayyorlash va yasashga majbur qiladi. O`yinda hozirgi zamon bolalariga xos bo`lgan texnikalarga qiziqish vujudga keladi va kuchayadi, shu sababdan bolalar turli xil o`yinchoq mashinalar yasaydilar hamda texnika o`yinchoqlari bilan o`ynaydilar.

O`yin befoyda yoki bo`lmasam zararli bo`lishi, ba`zi hollarda yomon hislarni uyg`otishi ham mumkin. Tarbiyachi o`yin yordamida bolalarni har tomonlama rivojlantirish vazifasini amalga oshirish uchun bolaga muntazam ravishda ta`sir etib borishi lozim.

O`yinning bola tarbiyasidagi asosiy roli – maktabgacha ta`lim tashkiloti hayotini o`yin bilan boyitishni talab qiladi. Shu sababdan ham o`yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgandir. Asosan, o`yinlar uchun nonushtagacha hamda undan keyin, mashg`ulotlardan, sayrlardan so`ng va kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Bolalar o`yinlarining o`ziga xos jihatlari shulardan iboratki, u tevarakatrodagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlarini, qilgan barcha xattiharakatlarini, ularning ish jarayonlaridagi munosabatlarini o`zida aks ettiradi.

Nutq o`yin jarayonida juda ham katta ahamiyatga egadir. Chunki nutq orqali bolalar bir-birlari bilan fikr almashadi, kechinamalarini o`rtoqlashadi. Nutq bolalar o`rtasida do`stona munosabatlar vujudga kelishiga, atrof-muhitda ro`y berayotgan voqea-hodisalarga bir maromda munosabatda bo`lishga yordam beradi. Shu sababli ham o`yinning pedagogik jarayondagi o`rni beqiyosdir.

Bolalarning o`yin o`ynashlari uchun turli vositalar kerak. Bolalarning asosiy tasvirlovchi vositalari – bu o`zlarining harakatlaridir. Masalan, bola ikki oyog`ida sakrab quyonchaga taqlid qiladi, ikki qo`lini qimirlatib pishillab paravoz bo`ladi va hokazolar. O`yinni aks ettiruvchi vosita qanchalik ko`p bo`lsa, uning mazmuni shunchalik boyroq bo`ladi hamda atrof-olamdagi voqea-hodisalardan olgan taassurotlari shunchalik to`laroq tarzda aks ettiriladi.

Sahnalashtirilgan o`yinlar bolalarning eshitgan asar yoki ertakdan olgan taassurotlarini mustaqil tarzda ifodalash va mashq qilish imkonini beradi. Bunday o`yinlar bolalarda iroda, intizom, o`z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi bir qator sifatlarni tarbiyalashda juda samarali vosita hisoblanadi. Bunday o`yinlarda bolajonlar o`zlarini aynan o`sha asardagi qahramon o`ridaman

deya o`ylab tasavvur qilib, sezgi, kechinmalari dunyosiga yanada chuqurroq kirib borishadi.

Didaktik o`yin – bu maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta`lim berish metodlaridan biridir. Didaktik o`yinlarni amalga oshirishda har doim g`oyaviylik prinsipiga amal qilishimiz lozim. Didaktik o`yinning o`yin faoliyati sifatidagi o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, tarbiyachining bolalar bilan o`zaro munosabatlari o`yin tarzida bo`ladi. Didaktik o`yinlarda tarbiyachi bolalarni faqat narsalarning nomi hamda ularni nimalarga kerak ekanligi bilan tanishtiribgina qolmasdan, balki o`sha narsalarning asosiy belgisini ajrata olishga imkon tug`dirishi lozim bo`ladi.

Maqolamiz so`ngini shunday yakunlashiniz mumkin, o`yin bolalar hayotida yuksak ahamiyatga molik jarayonlardan biri hisoblanadi. Tatbiyachi o`yin jarayonini bolajonlarda o`yinga bo`lgan qiziqishni uyg`otgan holda tugatishi kerak bo`ladi, ya`ni bolalar aynan o`sha o`yinni davom ettirishni xohlab qolsilar. O`sha o`yin yakunida tarbiyachilarimiz shunday deyishlari lozim:”Kelgusi gal bundan ham yaxshiroq o`ynaymiz” yoki bo`lmasam “Yangi o`yinimiz bundan ham qiziqroq bo`ladi”. Shundagina bolajonlarimiz yana o`yin o`ynayman deb xarxasha qilishmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o`yin orqali tarbiyalash kelajakda o`zining yaxshi va kutilayotgan natijalarini ko`rsatadi. O`yin asosida olib borilgan har qanday faoliyat bolalarni ham ma`nan, ham jismonan, ham aqlan, barkamol yetuk, sog`lom qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.U.Xasanboeva. Maktabgacha ta`lim pedagogikasi. T., 2007 y.
2. Sh.A. Sodiqova :Maktabgacha pedagogika”. “Tafakkur sarchashmalari” T.: 2013
3. Maktabgacha pedagogika. O`quv-uslubiy majmua. Nizomiy nomidagi TDPU-2018 y, 21-bet.
4. Usmonxo`jayev T.S., Usmonov P.A., Meliyev X.A., Shofayziyev Sh. 500 harakatli o`yinlar. T. “Bekinmachoq plus”, 2010 y.
5. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshqalar. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. Toshkent, “Ilm-ziyo” nashriyoti. 2012 y.
6. <https://ziyonet.uz>
7. <https://azkurs.uz>